

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA TALABALAR MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Ergasheva Anbar Shaymardan qizi

Xalqaro innovatsion universitetining Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya

Keyingi o'n yillikda ta'lim sohasida yuz berayotgan global o'zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalar va globallashuvning kuchayishi, talabalar madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni shakllantirishga qaratilgan metodik strategiyalar tahlil qilinadi. Loyiha asosida o'qitish, virtual almashinuv va muammoga asoslangan ta'lim kabi yondashuvlarning madaniyatlararo kompetensiyaga ijobiy ta'siri amaliy misollar bilan yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim, madaniyatlararo kompetensiya, interfaol metodika, raqamli vositalar, global muloqot.*

Abstract

In the last decade, global transformations in the field of education, particularly the rise of digital technologies and intensified globalization, have made the development of students' intercultural competence a crucial priority. This article examines methodological strategies aimed at preparing students for intercultural communication within an innovative educational environment. It highlights the positive impact of approaches such as project-based learning, virtual exchange, and problem-based instruction through practical examples.

***Keywords:** innovative education, intercultural competence, interactive methods, digital tools, global communication.*

Аннотация

За последнее десятилетие глобальные изменения в сфере образования, особенно рост цифровых технологий и усиление процессов глобализации,

сделали развитие межкультурной компетенции студентов актуальной задачей. В статье анализируются методические стратегии подготовки студентов к межкультурному взаимодействию в условиях инновационной образовательной среды. Представлены практические примеры положительного влияния проектного обучения, виртуального обмена и проблемно-ориентированного подхода на формирование межкультурной компетенции.

Ключевые слова: инновационное образование, межкультурная компетенция, интерактивные методы, цифровые инструменты, глобальная коммуникация.

Kirish

Keyingi yillarda dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar ta'lim jarayoniga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi zamonaviy ta'limga yangi talab va yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda talabalar nafaqat o'z sohasida malakali bo'lishlari, balki turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish – bugungi ta'lim strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda madaniyatlararo kompetensiya atamasi keng yoritilgan bo'lib, u talabalar tomonidan madaniy xilma-xillikni qabul qilish, hurmat qilish, ijtimoiy bag'rikenglik ko'rsatish va xalqaro muhitda samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi (Gudykunst, 2003; Deardorff, 2006). Ta'limda ushbu kompetensiyani rivojlantirish esa innovatsion metodlar, raqamli vositalar va interfaol o'quv muhitini talab etadi.¹

Innovatsion ta'lim muhiti – bu an'anaviy dars jarayonidan farqli o'laroq, interaktiv, o'zaro hamkorlikka asoslangan, talabning faol ishtirokini ta'minlaydigan va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan pedagogik makondir. Bunday muhitda talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish, hamkorlikda ishlash, va turli madaniy kontekstlarni anglab yetish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shuningdek, loyihaviy ta'lim, muammoga asoslangan yondashuv, virtual almashinuv dasturlari kabi

1. ¹ Deardorff, D.K. (2006). *Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization*. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266.

innovatsion texnologiyalar orqali madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanishiga keng yo'l ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini modernizatsiyalash va kadrlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qaror va farmonlarida ham ushbu kompetensiyaning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Oliy ta'limning xalqaro integratsiyasi, xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'qitish, talabalar almashinuvi kabi mexanizmlar – bu jarayonning asosiy ko'rinishlaridir. Shu bois, innovatsion ta'lim muhitida madaniyatlararo kompetensiyaning shakllantirishga oid metodik strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi zamon ta'limi dunyoqarashi keng, turli millat va madaniyat vakillari bilan erkin muloqot qila oladigan, ijtimoiy jihatdan faol va madaniyatlararo anglashuvga ega shaxslarni tayyorlashga intilmoqda. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar asosidagi o'quv muhitini tashkil qilish va unga zamonaviy metodik² yondashuvlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniyatlararo kompetensiyaning shakllantirish — ko'p madaniyatli jamiyatlarda yashash, ishlash va o'qish uchun zarur bo'lgan muhim shaxsiy sifat hisoblanadi.

Madaniyatlararo kompetensiya keng ma'noda, kishining boshqa madaniyat vakillari bilan hurmat, bag'rikenglik va o'zaro tushunish asosida muloqot qila olish layoqati, boshqa milliy qadriyat va an'analarni qabul qila olish qobiliyatidir. Deardorff (2006) ta'rifi ko'ra, bu kompetensiya kognitiv (bilimga oid), affektiv (emotsional-hissiy), va xulqiy (xatti-harakatga oid) tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonida shakllanishi kerak. Zamonaviy ta'lim tizimi ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay innovatsion vositalarni taklif etadi.

Innovatsion ta'lim muhiti — bu o'zida interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, onlayn hamkorlik, va ijtimoiy media orqali bilim almashish jarayonlarini mujassam etgan kompleks tizimdir. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi strategiyalar yuqori samaradorlikka ega:

2. ² Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.

1. **Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning):** Talabalarning turli mamlakatlar madaniyatiga oid mavzularda mustaqil tadqiqot olib borishlari, jamoada ishlashlari va yakuniy natijani taqdim etishlari orqali ularning madaniyatlararo anglashuvi kengayadi. Bunday loyiha ishlarida talaba nafaqat o'rgangan ma'lumotni qayta ifodalaydi, balki o'z qarashini bildirish, boshqalar fikrini eshitish va umumiy natijaga erishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.³
2. **Virtual almashinuv (Virtual Exchange):** Bu strategiya dunyo miqyosida faoliyat yuritayotgan universitetlar o'rtasida tashkil etiladigan onlayn muloqot shaklidir. Unda talabalar boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan mavzular bo'yicha fikr almashadilar, birgalikda muammolarni muhokama qiladilar, madaniy farqlarni o'rganadilar. Virtual almashinuv, ayniqsa, pandemiya davrida katta dolzarblik kasb etdi va hanuzgacha ta'limda innovatsion vosita sifatida qo'llanmoqda.
3. **Muammoga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning):** Turli madaniyatlar o'rtasida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan topshiriqlar orqali talabalar o'zaro anglashuv, muhosaga kelish, muammolarga keng ko'lamda qaray olish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Bu metod ham muloqot, ham tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.
4. **Madaniyatlararo simulyatsiyalar va rolli o'yinlar:** Turli madaniy stsenariylarga asoslangan o'yinlar orqali talabalar boshqa xalqlarning qadriyatlarini boshdan kechirishga harakat qiladilar. Bu esa hissiy anglashuvni kuchaytiradi va empatiya hissini shakllantiradi.⁴
5. **Multimadaniyaviy seminarlar va konferensiyalar:** Akademik muhitda tashkil etilgan bunday tadbirlar orqali talabalar xorijiy tilda muloqot qilish, turli madaniyatlarga oid dolzarb masalalarni muhokama qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ularning global fikrlash doirasini kengaytiradi.

3. ³ Bennett, M. J. (2009). *Cultivating intercultural competence: A process perspective*. In D. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*.

4. ⁴ Gudykunst, W. B. (2003). *Cross-cultural and intercultural communication*. Sage Publications.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi strategiyalarni qo'llash natijasida talabalar orasida madaniy farqlarni qabul qilish darajasi oshadi, muloqotga tayyorlik kuchayadi va global fuqarolik tushunchasi mustahkamlanadi (Byram, 1997; Bennett, 2009). Shu bilan birga, bunday kompetensiyalarga ega bo'lgan yoshlar mehnat bozorida ham yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'ladi.

1-jadval. Innovatsion metodlar va ularning madaniyatlararo kompetensiyaga ta'siri

№	Innovatsion metod/strategiya	Qisqacha tavsifi	Madaniyatlararo kompetensiyaga ta'siri
1	Loyiha asosida o'qitish (PBL)	Talabalar muayyan mavzuda mustaqil yoki guruh bo'lib loyiha tayyorlaydilar.	Jamoda ishlash, madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishni o'rgatadi.
2	Virtual almashinuv (Virtual Exchange)	Xorijiy talaba yoki muassasalar bilan onlayn muloqot shaklida o'quv almashuvi.	Global muloqot ko'nikmalari va boshqa madaniyatlarni anglash kuchayadi.
3	Muammoga asoslangan o'qitish (PBL)	Talabalar real hayotdagi madaniy muammolarni hal qilish ustida ishlaydilar.	Tolerantlik, murosa va madaniy kontekstda fikr bildirishni rivojlantiradi.
4	Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar	Madaniyatlararo ssenariy asosidagi o'yin shaklida o'qitish.	Empatiya va hissiy anglashuv ko'nikmalarini kuchaytiradi.
5	Multimadaniy seminar va konferensiyalar	Turli millatlar ishtirokidagi ochiq muloqot va ilmiy almashinuv tadbirlari.	Madaniy qadriyatlarni solishtirish, global fikrlashni shakllantiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillar, tarix, sotsiologiya, falsafa kabi fanlar orqali ham madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv dasturlari joriy etilmoqda. Ammo bu jarayonni yanada samarali qilish uchun o'quv rejalariga innovatsion metodik yondashuvlarni chuqur integratsiyalash, o'qituvchilarni shu yo'nalishda tayyorlash, va madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimi global o'zgarishlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi sharoitida nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarga ham katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, madaniyatlararo kompetensiya — talabalarning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, boshqa millatlar qadriyatlariga hurmat bilan yondashish, global muhitda moslashuvchan harakat qilish qobiliyati — hozirgi davr talimining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan.

Innovatsion ta'lim muhiti — bu yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, virtual hamkorlik va madaniyatlararo o'zaro ta'sir imkoniyatlarini o'z ichiga olgan o'quv maydonidir. Ushbu maqolada o'rganilgan loyiha asosida o'qitish, virtual almashinuv, muammoga asoslangan o'qitish, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar kabi metodlar talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bunday yondashuvlar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimga ega bo'ladilar, balki real madaniy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish, emotsional moslashish, va fikr almashishga tayyor bo'lish kabi amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bu borada ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Xususan, xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'qitish, xalqaro hamkorlikda almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish, va raqamli platformalarda tashkil etilayotgan seminar va treninglar orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Biroq, bu borada yanada chuqurlashtirilgan metodik yondashuvlar, ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan strategiyalarni tizimli asosda ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish, va baholash mezonlarini takomillashtirish — zamonaviy ta'limda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat talabalar shaxsiy rivojiga, balki jamiyatda madaniyatlararo totuvlik va global fuqarolik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Deardorff, D.K. (2006). *Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization*. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266.

2. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
3. Bennett, M. J. (2009). *Cultivating intercultural competence: A process perspective*. In D. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*.
4. Gudykunst, W. B. (2003). *Cross-cultural and intercultural communication*. Sage Publications.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-sonli qarori “Ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy o‘quv muhitini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6. Gulyamov, S., Ibragimova, D. (2020). *Innovatsion pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. UNESCO (2013). *Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework*. Paris: UNESCO Publishing.
8. Zaripova, D., & Akhmedova, M. (2021). Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ta’limning roli. *Pedagogik innovatsiyalar ilmiy jurnali*, №4, 33–38.